

YOSHLAR HIKOYACHILIGIDA NASRIY AN'ANALAR ROLI

*Ulkanboyeva Matluba Hasanboy qizi, O'zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti tayanch doktoranti*

THE ROLE OF PROSE TRADITIONS IN YOUTH STORIES

*Ulkanboyeva Matluba Hasanboy qizi, base doctoral student of the
Institute of Uzbek language, literature and folklore*

РОЛЬ ПРОЗАИЧЕСКИХ ТРАДИЦИЙ В МОЛОДЕЖНОМ ПОВЕСТВОВАНИИ

*Улканбаева Матлуба Хасанбой кызы, базовый докторант
Института узбекского языка, литературы и фольклора*



e-mail: matluba-1990@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy yoshlar hikoyachiligida nasriy an'analarning tutgan o'rni tahlil qilinadi. Muallifo o'zbek adabiyoti taraqqiyotida shakllangan kompozitsion, mavzu va obrazlar tizimining bugungi yosh ijodkorlar asarlarida qanday tarzda davom etayotgani va yangicha talqin olayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: zamonaviy hikoyachilik, yosh ijodkorlar, nasriy an'analarga, kompozitsion qurilish, adabiy meros, obrazlar tizimi, badiiy tafakkur, yangicha talqin, estetik izchillik, o'zbek adabiyoti.

Abstract: This article analyzes the role of prose traditions in modern youth storytelling. The author shows how the system of composition, themes and images formed in the development of Uzbek literature continues in the works of today's young writers and receives new interpretations.

Keywords: modern storytelling, young writers, prose traditions, compositional construction, literary heritage, system of images, artistic thinking, new interpretation, aesthetic consistency, Uzbek literature.

Аннотация: В статье анализируется роль прозаических традиций в современном молодежном повествовании. Автор показывает, как система композиции, тем и образов, сформировавшаяся в процессе развития узбекской литературы, продолжается и получает новые интерпретации в творчестве современных молодых творцов.

Ключевые слова: современное повествование, молодые писатели, прозаические традиции, композиционное построение, литературное наследие, система образов, художественное мышление, новая интерпретация, эстетическая состоятельность, узбекская литература.

KIRISH (INTRODUCTION). Zamonaviy o'zbek adabiyotida yosh ijodkorlar nasr yo'nalishida samarali ijod qilayotganlari kuzatilmoqda. Ularning hikoyalarida adabiy an'analarga tayanilgan holda, bugungi kun muammolari, ruhiy kechinmalar va ijtimoiy voqeliklar o'ziga xos tarzda aks ettirimoqda. Ayniqsa, nasriy an'analarga — kompozitsiya qurilishi, obraz yaratish, badiiy tafakkur uslubi kabi jihatlar yoshlar hikoyachiligida yangicha shakl va mazmun-da davom etayotgani e'tiborga molikdir. Ushbu maqolada o'zbek nasrining tarixiy taraqqiyotida shakllangan an'anaviy unsurlar zamonaviy yosh ijodkor-

lar ijodida qanday tarzda o'z ifodasini topayotgani tahlil etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Zamonaviy yoshlar hikoyachiligi atrofida turli fikr va qarashlar mavjud. Adabiyotshunoslarning aksariyat qismi bu davr yosh yozuvchilariga xayrixoh. Jumladan, adabiyotshunos B.Karim "Shoir ta'biricha, "yoshlik" – zangor fasl". Bu faslda qalb musaffo, til burro bo'ladi. Yoshlar ijodiy biografiyasining ilk davrida bir olam orzulari bilan yashaydi. Ularning poetik dunyosida shijoat, isyon, nigilizm va boshqa turli teran va ziddiyatli his-tuyg'ular jamlanadi. Bir zarb bilan dunyo

muammolarini chilparchin, kunpayakun qilmoq istaydi, ular”[1;32], - deb yosh nosirlarga umid bildirsa, filologiya fanlari doktori M.Qo‘chqorova Raxshona Ahmedova ijodi haqida yozar ekan “Bugunning yozuvchisi qanday bo‘lishi kerak? – degan savolga “Mana, Raxshonadek bo‘lishi kerak”, deb javob bergan bo‘lar edim. Milliy ijodiy an‘analar va milliy dunyoqarashni o‘zida jamuljam etgan yangi adabiy ovozning sasi yanada balandroq jaranglashiga tilakdoshmiz!”[2;315] - deya R.Ahmedova timsolida zamonaviy hikoyachilik kelajagiga ishonch bildiradi. Iste’dodli yosh adib Xoliyor Safarovning hikoyalari haqida so‘z ketganda esa, Hotam Umurovning fikrlari e’tiborga molik: “Men Xoliyorning ko‘plab hikoyalariga xos xususiyat – sujetning kutilmagan yechimlariga duch kelganimda ulug‘ yozuvchilarga xos usulni, topqirlikni ilg‘agandek bo‘laman”[3;56]. Xoliyor Safarov ijodidagi o‘ziga xoslikni Ruxsora Tulaboyeva ham e’tirof etadi: “Xoliyor Safarov hikoyalarida manaman deb yuzaga chiqib turuvchi xususiyatlardan biri, bu – milliy qadriyatlar. Adibning qahramonlaridan tortib, tasvirga olingan joy, odamlar, mahalla-ko‘y, yoshlar-u keksalar, hatto tabiat manzaralari ham millat kishisiga tegishli ekanini aytib turadi”[3;178].

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Yuqorida ko‘rib chiqilgan ilmiy-adabiy tajribalar asosida XX asr o‘zbek hikoyachiligida nasriy an‘analarning o‘rni va roli, shuningdek, mazkur an‘ananing zamonaviy hikoyachilikda qanday shaklda davom etayotgani va yangilanayotganini tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi. Bu jarayonda tarixiy-qiyosiy va struktur tahlil metodlaridan foydalanish samarali natijalar berishi kutiladi. Keyingi mulohazalarimizda aynan shu metodologik yondashuvlar asosida tahlil olib boramiz hamda yangicha nazariy xulosalarni ilgari surishga harakat qilamiz.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Bo‘ron tingan kecha” (N.Chori), “Oriyat” (X.Safarov), “Polvon” (B.Ravshan), “Mung” (J.Kengboyev) kabi hikoyalar mavzusi va ifoda uslubiga ko‘ra “Yulduzlar mangu yonadi” (Tog‘ay Murod) qissasi yo‘nalishida yaratilgan. Qissadagi obrazlar silsilasi, obrazlarga yuklangan badiiy yuk yosh nosirlar ijodida T.Murod an‘analari munosib davom etayotganidan darak beradi. Ya‘ni T.Murod anglagan va badiiy idrok qilgan global badiiy ma‘no – o‘zbek millatiga mansub shaxs

sifatida shakllanish va buyuk millat sifatida birlashish orzusi yuqoridagi hikoyalarda davom etadi. “To‘qqizinchi qizini “ulim” deb yelkasidan qoqmoqchi”[4;20] bo‘lgan Tashkan miroxur (“Bo‘ron tingan kecha”) uyushtirgan katta ko‘pkarida tog‘asining hurmatidan kurashishdan bosh tortib millatning odobi, sharm-u hayosini ko‘rsatgan Shaymardon Polvon (“Bo‘ron tingan kecha”) T.Murodning Bo‘ri polvoni (“Yulduzlar mangu yonadi”)ga ini, haqiqatga xiyonat qilib, yuzi shuvut bo‘lgan Turdi bakovul (“Oriyat”) Nasim Polvon (“Yulduzlar mangu yonadi”) kabi tiplarning avlodi, Yetti opadan keyin tug‘ilib Boybo‘ri polvon (“Polvon”)ning yolg‘iz umidiga aylanib, birinchi bor kurash davrasiga tushib To‘ra polvon (“Polvon”)ni yulduz sanatgan Tilovmurod polvon esa Bo‘ri polvon orzu qilgan “yuragi katta” yigit, polvonligi va polvonlarni yozishi bilan mashhur bo‘lgan, bir xonadonning chorak asrlik kelishmovchiligini, tantilik bilan yengib, bir musulmonning dilini shod qilgan Abdul Nosir (“Mung”) obrazining prototipi Tog‘ay Murodning o‘zidir. Bu haqda Islomjon Yoqubovning fikrlari diqqatimizni tortadi: “Hikoyadagi Abdul Nosir obrazi dashtni, kengliklarni polvon-u cho‘ponlar gurungini qo‘msashi, ular bilan birga yotib, birga turishi, to‘y-ko‘pkarilarda hamdam-hamnafasligi kabi jihatlari bilan sevimli adibimiz Tog‘ay Murod prototipi emasmikin, degan fikr ham uyg‘ondi”[5;132]. Adabiy an‘ana bir necha mualliflarning millat va uning tafakkuri taraqqiy etishini bitta asosda ko‘rishlari va buni asarlarida ifodalashlari hamdir. “Yulduzlar mangu yonadi” qissasidan badiiy maqsad faqat Bo‘ri polvon va Nasim polvonning o‘tmishini so‘zlab berish emas, aksincha, shu sujet qatida polvonni polvon maqomida tutib turadigan narsa uning milliy g‘ururi, tarbiyasi, xarakteri ekanligiga urg‘u berib, jahonda minglab elatlarning qatida yo‘q bo‘lib ketishni istamagan millat azaliy an‘analariga, otabobolaridan qolgan odob-axloq mezonlariga, ajdodlarning haq va haqiqat borasidagi purma‘no qarashlariga befarq bo‘lmaslik va ularni mahkam tutish muqarrar halokatdan saqlashi borasida bong urish, shuni kitobxonga his qildirishdir. Hikoyalarning nafaqat mazmuni, g‘oyasi, balki ifoda tili ham Tog‘ay Murod tanlagan yo‘l xalq dostonlari yo‘lida, baxshiyonadir. Hikoya-larning tasvir tilida ham T.Murodning ijodiy ta’siri yaqqol seziladi. Takror bo‘lsa ham aytish kerakki, til, uslub, ifoda, sujet, mavzu kabi badiiy katego-riyalardagi

izdoshlikni ijodiy an'ana deyish mumkin, ammo tom ma'nodagi adabiy an'ana ushbu asarlar-ning shakl va mazmuniy uyg'unligida yuzaga chiqqan global badiiy ma'no yakdilligida zuhur topadi.

“Xizrini yo‘qotgan odam” (X.Safarov), “Tor ko‘cha” (J.Kengboyev), hikoyalaridagi badiiy ma-kon tasviri orqali mualliflar jamiyatimizdagi olomon kayfiyati va tafakkur tarziga badiiy nigoh tashlaydilar. Bir qarashda bu ikki hikoyaning mushtarak jihati ko‘zga tashlanmaydi. “Xizrini yo‘qotgan odam” hikoyasi tasvir yo‘sini; bola, yigit, ayol, er-kak, ota, qariya, kabi ismsiz umumlashma obrazlari-ga ko‘ra X.Do‘stmuhammadning “Jajman”, Nazar Eshonqulning “Tobut”, Shodiqul Hamroning “Ko‘k ko‘l”, Ulug‘bek Hamdamning “Bir piyola suv” hikoyalari tipidagi ramziy-falsafiy yo‘nalishda yozilgan bo‘lsa, “Tor ko‘cha” hikoyasi ifoda uslubi; individul obrazlari (Botir muallim, Shodi garang, Bo‘ron jandachi, Ro‘zi ko‘r), hikoyachi-roviyning badiiy voqelikning xolis kuzatuvchisi maqomida qolishi kabi xususiyatlariga ko‘ra Shukur Xolmirzayevning “O‘zbek xarakteri”, Abduqayum Yo‘ldoshevning “Alvido go‘zallik”, Luqmon Bo‘rixonning “Qo‘noq” kabi hikoyalari uslubini yodga soladi. Bu ikki hikoyaning badiiy qurilish mexanizmi ana shunday farqli, ammo ushbu badiiy matn ortida qad rostlagan badiiy ma’noga ko‘ra ular mushtarak. Har ikki muallif o‘zlari tanlagan badiiy fabula ortida jaholat, fikriy qoloqlikning ayanchli manzarasini chizmoqchi bo‘ladilar. X.Safarov “Xizrini yo‘qotgan odam” hikoyasida bozordagi hissiz olomon oqimining yonidagi ezgulikka befarqligi, ayrimlarining ochiqdan-ochiq johilona harakatlari vositasida jamiyatdagi fikriy torlik, biqlikka o‘quvchi diqqatini tortmoqchi bo‘lsa, J.Kengboyev esa ayni shu badiiy ma’no ifodasi o‘laroq qishloqning tor ko‘chasi obrazining ramziy tasviridan foydalanadi. “Qizg‘aldoq” (N.Chori), “Oq ovulning Ozodasi” (S.Tursunov), “Hech kimga bildirmay” (B.Ali) hikoyalariga qahramon bo‘lib kirgan ayol-qizlar obrazi Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola”, A.Qahhorning “Dahshat” hikoyalaridagi Sharofatxon va Unsinlarga izdoshlik qiladi. Nurilla Chorining Qizg‘aldoq, Sanjar Tursunovning Ozodasi, Bayram Alining Sadafi ana shu silsilaning uzviy davomi o‘laroq adabiy olamga kirib kelgan desak, yanglishmaymiz. Bu hikoyalar bir qarashda o‘smirlar dunyosining beg‘ubor ko‘ngil rozlari kabi taassurot uyg‘otishi mumkin. Zotan hali-hanuz Qodiriyning “O‘tkan kunlari”ni sof liro-

romantik mazmunda, kundoshlik azobi, sevgi uchburchagining ayanchli yakuni sifatida tushunish tendensiyasi ham saqlanib turibdi. Ammo badiiy asar tahlil metodlari imkoniyatidan kelib chiqsak, asarlarni sujet darajasida jo‘n tushunish va muhokama qilishdan tiyilishga to‘g‘ri keladi. Yuqorida Nurilla Chorining estetik ideali bo‘lgan Qizg‘aldoq g‘oyib bo‘ldi va u har safar ko‘klam chog‘i umid bilan ko‘z ochadi. Xo‘sh, Qizg‘aldoq umid bilan nimani kutmoqda? Balki yangi avlodning yangi ovozigina ilhaqdir. Oq ovulning Ozodasi nimaga ilhaq? Ozodaning hikoyada keltirilmagan xatidagi iltimosi nima edi? Balki u ham zamonlar qatida qolib ketgan haqiqat yuzaga chiqishiga ilhaqdir? Hikoya so‘ngidagi “Ozoda hamisha eshagi ortda qoladigan Qaynarni sevar ekan!” jumlasini Ozoda intiq bo‘lgan haqiqat deb tushunsak, yuqorida aytganimizday, faqat syujetni ko‘rib asl ramziy ishorani anglamagan bo‘lamiz. Sadaf (“Hech kimga bildirmay”) esa haqiqiy fidokori kim ekanini bilmaydi. U hatto Mo‘minni ayblaydi. Hammasiga aybsiz aybdor bo‘lishiga qaramay, Mo‘min mum tishlagan ko‘yi qat’iy turib oladi. Xuddiki, aybsiz aybdor A.Qodiriy boshi ketsa ham mardona turgani kabi, xuddiki, Milliy ozodlik harakati qatnashchilari – bosmachilar deb, millatparvar jadidlar esa – xalq dushmanlari deb tanitilgani, ayblangani kabi.

XULOSA(CONCLUSION). O‘rganilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida faoliyat yuritayotgan yosh nasr vakillari ko‘hna va navqiron adabiy an‘analimizga suyangan holda, ularni zamon ruhi va bugungi hayot talablari bilan uyg‘unlashtirishga intilmoqda. Ular nafaqat adabiy merosning munosib davomchilari, balki chinakam yangilovchilari sifatida maydonga chiqmoqdalar. Bu holat o‘zbek adabiyotining barqaror rivojlanayotganini va yangi avlod ijodkorlari tomonidan izchil boyitilayotganini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karim B. Ruhayat alifbosi. – T.: G‘afur G‘ulom, 2018. – 364 b.
2. Ahmedova R. Soyabon ostida. – T.: Akademnashr, 2021. – 320 b.
3. Safarov X. Onamning yolg‘onlari – T.: Ochun, 2024. – 256 b.
4. Chori N. Tashvishi yo‘q odamlar. – T.: G‘afur G‘ulom, 2019. – 104 b.
5. Kengboyev J. Yurakning bir cheti. – T.: G‘afur G‘ulom, 2019. – 140 b.